

Surxondaryo viloyatiga yangi hokim tayinlandi

Bugun Surxondaryo viloyati hokimligida viloyat faollari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi rahbari Sardor Umurzoqov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirok etdi.

Yig'ilishda tashkiliy masala ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari bilan 2019 yildan buyon Surxondaryo viloyati hokimi lavozimida faoliyat yuritib kelgan To'ra Bobolov boshqa ishga o'tishi munosabati bilan lavozimidan ozod etildi va shu kunga qadar Toshkent shahri prokurori lavozimida faoliyat yuritib kelgan Ulug'bek Berdiqobilovich Qosimov Surxondaryo viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

So'zga chiqqanlar faollar voha ahli yangi rahbar atrofida jipslashib, keyingi yillarda qo'lga kiritilgan yutuq va natijalarni yanada yuksaltirish, barcha soha va tarmoqlar bo'yicha qabul qilingan dasturlarni izchil amalga oshirish yo'lida astoyidil mehnat qilishlarini ta'kidlashdi.

Ma'lumot uchun, Ulug'bek Qosimov Surxondaryo viloyatining Muzrabot va Denov tumanlari hokimi, Surxondaryo va Farg'ona viloyati prokurori lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.